

ZAMONAVIY LUG'ATLARNING YARATILISHI VA UNING LINGVISTIK ASOSI**Muqaddam Ibragimova Abdumurotovna,**

Sherobod tumani 33 - umumta'lim maktabi ingliz tili o'qituvchisi

O'zbekiston, Sherobod

E-mail: rustamkhurramov@mail.ru

Annotatsiya

Ushbu maqolada Zamonaviy lug'atlarning yaratilishi va uning lingvistik asosi haqida gap boradi. Lug'at uchun so'zlik tanlash har qanday lug'atni tuzishda ham asosiy muammolardan biridir. O'quv lug'atidagi so'zlikning o'ziga xos belgisi eng zarur, eng muhim ma'lumotlarni qamrab olishi, aniq, qisqa, lo'nda bo'lishidir.

Kalit so'zlar: o'quv, ingliz va o'zbek tillari, lug'at, ta'lim, so'z, o'ziga xos belgi.**Kirish (Introduction)**

Lug'at arabcha so'z bo'lib, 1) til, ovoz; 2) so'z, ifoda; 3) so'z varianti ma'nolarini ifodalaydi¹. Jumladan, lug'at so'zi arabchada al-lug'atil arabiyya – arab tili ma'nosida ishlatiladi. Biroq arabchaga lug'at atama sifatida qomus² (ar. 1) okean 2) lug'at, leksikon), arabcha-o'zbekcha lug'at birikmasi esa qomusi arabiyy-uzbakiy tarzida o'giriladi. Shu o'rinda arabchada lug'at so'ziga ma'nodosh sifatida lison so'zini ham eslab o'tish joiz. Bizga tanish Lison ut-tayr birikmasi qush tili (qush nutqi), aniqrog'i, lison – til, nutq ma'nosini ifodalaydi. Shuningdek, arab adabiy tili birikmasi al-lisanul arabiyyul fasih tarzida o'giriladi. Misollar asosida xulosa chiqarilsa, arab tilida har ikkala so'zning o'xshashligi nutq, til ma'nolarini ifodalashida ma'lum bo'ladi, farqli tomoni esa nutq a'zosi ma'nosini faqat lison so'zi ifodalaydi³.

Lug'atlarni davriyligiga ko'ra ko'ra ikki turga ajratish mumkin. Zamonaviy lug'atlar va tarixiy lug'atlar. Zamonaviy lug'atlar so'zligi hozirgi kunda qo'llanayotgan leksemalar tashkil etadi. Istorizm va arxaizmlar kiritilmaydi[4].

Tarixiy lug'at so'zlarning qachondan boshlab shu tilda qo'llana boshlaganini, uning fonetik, grammatik, semantik taraqqiyoti jarayonini ko'rsatib beruvchi lug'atdir. Lekin o'zbek lug'atchiligidagi bu tipdagi lug'at juda kam yaratilgan[14].

¹ Арабско-русский словарь. Часть II. Стр. 263² Арабско-русский словарь. Часть II. Стр. 156³ Русско-арабско- словарь. –М., Русский язык. Стр. 608

Shu tipdagи lug‘atlar qatoriga etimologik lug‘atlarni ham keltirish mumkin. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati professor SH.Rahmatullaev tomonidan yaratilgan. Etimologik lug‘at so‘zning kelib chiqishini ko‘rsatib beradigan lug‘atdir.

Zamonaviy lug‘atlar deganda tilshunosligimizda allaqachon ilmiy nazariy asoslari ishlab chiqilgan, ta’lim tizimiga joriy qilinishi zarur lug‘atlar nazarda tutilmoxda⁴.

O‘zbek tilida so‘zlar darajalanishi lug‘ati, o‘zbek tilida butun-qism munosabatli (partonimik) so‘zlar lug‘ati, universal o‘quv lug‘ati, uyadosh so‘zlar lug‘ati, ideografik lug‘at kabi o‘quv lug‘atlarining bir qancha yangicha turlari ta’lim bo‘g‘ini uchun tayyorlab berilishi zarur bo‘lib turibdi.

Elektron lug‘at masalasi hozirgi paytda nafaqat ta’lim tizimi, balki lug‘atchilik sohasining muhim masalalaridan biri sanaladi[5].

Til fani bo‘limlari orasida leksikologiya va leksikografiya boshqalariga qaraganda tez o‘zgarishga uchraydigan bo‘limlar hisoblanadi. Zeroki, bugungi kunda jamiyatning barcha sohalarda yuz berayotgan jadal rivojlanish, o‘zgarish asosida bir tildan boshqa tilga shiddat bilan oqib kelayotgan so‘zlarning yangi leksik qatlamga kelish o‘rnini aniqlash, izohlash va omma ahliga havola etish kabi tezkor ishlarni faqat va faqat oson va qulay elektron lug‘atlar orqaligina tartibga solib turish mumkin.

Shunga ko‘ra nafaqat tilshunosligimizda, balki umumfanlar bo‘yicha yaratiladigan elektron lug‘atlar masalasi davlat ahamiyatiga ega bo‘lgan kun tartibidagi dolzarb masalalardan biridir. Biroq bu ishlarning barchasi tilshunoslik bo‘yicha yaratiladigan elektron lug‘atlari asosida shakllansa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results)

Bugungi tilshunosligimizda yaratilgan zamonaviy lug‘atlarga quyidagilarni misol qilib ko‘rsatishimiz mumkin.

Vatanimiz mustaqillikka erishgandan keyin lug‘atchilik, lug‘at tuzish ishlari susaygani yo‘q, balki kundan kunga rivojlanib bormoqda. Lug‘atlarining miqdori, turlari tobora ko‘payib xalqmiz ehtiyojini qondirmoqda. Bunga misol qilib, avvalo, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”⁵ va “O‘zbek milliy ensiklopediyasi”⁶ni misol qilishimiz mumkin.

⁴Орифжонова Ш. Ўзбек тилида лексик градуонимия: Филол. фан. номз. дисс. ... автореф. - Т., 1996. -27 б.

⁵ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилд. –Т.: 2006 -2008.

⁶ Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 12 жилд. –Т.: 2000-2008.

Yangi ko‘p jildli “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” 1981- yil yaratilgan ikki jildli lug‘at⁷ning to‘ldirilgan, yoki qandaydir o‘zgartirishlar bilan qayta ishlangan nashri emas, balki leksikografiyaning yangi yutuqlarini hisobga olgan holda yaratilgan mutlaqo yangi lug‘atdir⁸. Yangi lug‘atda so‘zshakllar izohlanishi leksikografiyaning yangi yutuqlariga tayangan holda aks etgan. Ularga misol tariqasida quyidagilarni sanab o‘tish mumkin:

- a) bir umumiy lug‘aviy ma’noga ega bo‘lgan so‘z shakllaridan asosiysini berish, qolganlarini esa, ma’noda muayyan siljish, o‘zgarish bo‘lmagan hollarda bermaslik;
- b) avvalgi lug‘atda “eskirgan”, “diniy”, kabi belgilar ostida berilgan (yoki umuman berilmagan) tarixiy, etnografik, diniy terminlarga yangicha yondashuv;
- v) o‘zbekcha va umumturkiy leksikadan boshqa (arabcha, forscha, baynalmilal, ruscha va b. tillarga mansub) so‘z va terminlarga mumkin qadar to‘liq etimologik ma’lumot berish kabilar yangi lug‘atning o‘ziga xos xususiyatlarini ko‘rsatadi⁹. Lug‘at unga kiritilgan lug‘aviy birliklar va ularga tuzilgan lug‘at maqolalaridan tashkil topgan[6].

O‘zbek millatining madaniy va ma’naviy qiyofasini dunyoga ko‘z-ko‘z qiluvchi yana bir lug‘at – 12 jildli “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”dir. Bu lug‘at ham avval tuzilgan 14 jildli ensiklopedik lug‘atdan tubdan farq qilib, keyingi paytda erishilgan yutuqlar, o‘zgarishlar hisobga olib tuzilgan. Lug‘at 2000–2011- yillar davomida nashr etildi.

Bulardan tashqari bir qancha ensiklopediyalar ham nashr etilmoqda. Masalan, 2006- yilda nashr etilgan “O‘zbekiston Respublikasi” ensiklopediyasi ham shular jumlasidan. Unda O‘zbekistonning barcha jabhalari to‘liq qamrab olingan. Uning tarixi, geografiyasi, aholisi, sanoati, iqtisodiyoti, hududiy tuzilishi, davlat organlari, partiyalar, so‘nggi paytda erishilayotgan yutuqlar, bunyodkorlik ishlari, xalqaro madaniy, savdo, hamkorlik aloqalari, xullas, O‘zbekiston bilan bog‘liq har qanday ma’lumotni topish mumkin.

Yana bir ensiklopedik lug‘at 2010- yilda nashr etilgan “Falsafa: ensiklopedik lug‘at”dir. Ushbu ensiklopedik lug‘at falsafa yo‘nalishidagi fanlarda, ijtimoiy-siyosiy va ilmiy-ommabop adabiyotlarda ishlatiladigan hamda ma’naviy hayotda keng qo‘llanilayotgan ayrim ilmiy, falsafiy atama, tushuncha, oqim, yo‘nalish, nazariya, ta’limotlarni izohlaydi. Mazkur lug‘at falsafa muammolari bilan qiziqqan o‘quvchilar, talabalar, o‘qituvchilar hamda keng kitobxonlar ommasiga mo‘ljallangan[7].

Bulardan tashqari, yana ko‘plab ensiklopediyalar to‘xtovsiz nashr etilmoqda. Masalan, 2010-yilda to‘rtinchi marta nashr etilgan “Xotin-qizlar ensiklopediyasi”, 2004- yilda nashr etilgan “Islom ensiklopediyasi”, 2009- yilda nashr etilgan “Toshkent ensiklopediyasi” kabi lug‘atlar shular jumlasidandir.

⁷ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2 том. –М., 1981.

⁸ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 том. –Т., 2006.

⁹ Ўзбекистон миллий энциклопедияси. –Т.: 12-жилд. 65-бет.

Tilning rivojlanish jarayonida uning lug'at tarkibi (leksikasi) boshqa sohalariga qaraganda tez, sezilarli, jiddiy o'zgarishlarga uchraydi. Buning sabablari ma'lum, albatta. Bu o'zgarishlar leksikaning faqat miqdor jihatdan emas, balki sifat jihatdan ham rivojlanishini aks ettiradi. Leksikadagi taraqqiyot, o'zgarishlar yangi lug'aviy birliklarning paydo bo'lishi va ma'lum lug'aviy birliklarning yo'q bo'lishi (iste'moldan chiqishi), so'zlarning yangi ma'nolar kasb etishi va ayrim ma'nolarining yo'qolishi kabi hodisalardan iborat bo'ladi. Bu jarayonda lug'aviy birliklarning adabiy me'yor (norma)ga bo'lgan munosabatida, qo'llanishi va boshqa xususiyatlarida turlicha o'zgarishlar yuz beradi[8]. Ana shunday o'zgarishlar ma'lum darajaga kelganida, ularni nazariy va amaliy jihatdan aks ettiruvchi tadqiqotlarga ehtiyoj tug'iladi. Amaliy ishlarning asosiylaridan biri esa izohli, tarixiy va etimologik lug'atlar tuzish hisoblanadi. Ikki jildli "Uzbek tilining izohli lug'ati" yuzaga kelgandan buen o'tgan yigirma yildan ko'proq vaqt mobaynida uzbek tili leksikasida yuz bergan o'zgarishlar e'tiborga olinsa, allaqachon ana shunday lug'atning yangisini yaratish vaqt kelganligi va bu ish hozirgi kunning talabi ekanligi o'z-o'zidan ayon bo'ladi.

Shu bilan birga, mamlakatimizning mustaqillikka erishuvi arafasida va mus-taqillikning dastlabki yillarida til siesatida jiddiy o'zgarishlar yuz berdi. Uzbek til iga davlat tili maqomi berilishi, Davlat tili haqidagi qonunning qabul qilinishi, qonun moddalarida qayd etilgan yo'l-yo'riq va vazifalar uzbek tili taraqqiyotida yangi davrni boshlab berdi. Til taraqqiyoti jarayonida uning o'z ichki imkoniyatlari asosida rivojlanishi qonuni to'la, erkin amal qila boshladi. Bu — masalaning bir tomoni. Ikkinci tomondan, respublikamiz hayotining barcha sohalarida yuz berayotgan katta o'zgarishlar, rivojlangan juda ko'p mamlakatlar bilan aloqalarning tobora kuchayib borayotganligi qisqa vaqt mobaynida uzbek tili, xususan, uning leksikasi rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi[9].

Ana shunday omillar ta'sirida uzbek tili lug'at tarkibida yuz bergan jiddiy o'zgarishlar munosabati bilan uzbek tilining davr talabiga javob beradigan ko'p jildli izohli lug'atini tuzish va chop etish respublika hukumatining maxsus qarori bilan Davlat dasturiga kiritilib, uni amalga oshirish O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot institutiga yuklatilgan.

Yangi ko'p jildli izohli lug'atni tuzishda 1981 yilda nashr etilgan ikki jildli izohli lug'at materiallaridan foydalanylган. Lekin u ikki jildli lug'atning to'ldirilgan yoki qandaydir o'zgartishlar bilan qayta ishlangan nashri emas, balki leksikografiyaning yangi yutuqlarini hisobga olgan holda yaratilgan mutlaqo yangi lug'atdir. Bir umumiylug'aviy ma'noga ega bo'lgan so'z shakllaridan asosiysini berish, qolganlarining esa, ma'noda muayyan siljish, o'zgarish bo'lмаган hollarda berilmасligi; avvalgi lug'atda "eskirgan", "diniy" kabi belgilar ostida berilgan (yoki umuman berilmagan) tarixiy, etnografik, diniy terminlarga yangicha yondashuv; o'zbekcha yoki umumturkiy bo'lмаган so'z va terminlarga (arabcha, forscha, baynalmilal, ruscha va boshqa tillarga mansub so'zlarga) mumkin qadar to'liq etimologik

ma'lumot berish kabilar ham ushbu lug'atning o'ziga xos xususiyatlaridan hisoblanadi[10]. U hozirgi uzbek tili leksikasining holatini va rivojlanish tamoyillarini hisobga olgan holda yaratilgan. Bunga uzbek tilshunosligining keyingi yillardagi erkin taraqqiyoti, Til va adabiyot institutida to'plangan katta miqdordagi leksikografik materiallar imkoniyat tug'dirgan.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).

O'zbek tilining ushbu izoxli lug'ati keng xronologik doirada uzbek tilining butun so'z boyligini emas, balki hozirgi zamon uzbek tilining keng iste'moldagi so'z boyligini to'plash va tavsiflashni o'ziga maqsad qilib qo'yadi. CHunki uzbek tili XX asrning 2-yarmida, xususan, keyingi o'n yilda yangi-yangi so'zlar, so'z shakllari va ifoda vositalari bilan boyidi, shu bilan birga, sifat jihatidan ham ancha o'zgardi. Unda yangi me'yor (norma)lar, yangi xususiyatlar shakllandi va rivojlanib bormoqda. Bunday o'zgarishlar tilning fonetik tarkibi va alifbosida ham, imlo va talaffuzida ham, morfologik va leksik-semantik tuzilmasida ham, stilistikasi va grammatik qurilishida ham ozmi-ko'pmi o'z aksini topdi[11]. Ayniqsa, uzbek tili leksikasida katta o'zgarishlar sodir bo'ldi. O'zbekistonda sanoat, qishloq xo'jaligi, fan, texnika va madaniyatning beqiyos taraqqiyoti, mamlakatimizda yangi iqtisodiy islohotlar hamda bozor munosabatlarining rivojlanishi bilan bog'liq holda uzbek tili lug'at tarkibida juda ko'p yangi so'zlar va terminlar yuzaga keldi. Ko'pgina so'zlarning ma'nosi o'zgardi, kengaydi, ayrim so'zlarning ma'nosi yanada aniklashdi, o'zaro farkdandi. Bularning barchasi lugatda o'z ifodasini topgan.

Shunday qilib, lug'atning asosiy vazifasi hozirgi uzbek adabiy tilining so'z boyligini to'plash va tavsiflash bilan birga uning me'yorlarini belgilash va barqarorlashtirishdan iboratdir. Ayni zamonda u nutq madaniyatining yuksalishiga ham xizmat qiladi[12].

Lug'atning me'yoriyligi shundan iboratki, unda adabiy tilning imlo, talaffuz, so'z yasash va uni ishlatish me'yorlari tavsiya etiladi. Buning uchun so'zlar lug'atga, o'zlarining umummilliy adabiy tilga munosabati, unda tutgan o'rni va qo'llanish doirasiga ko'ra tanlab kiritilgan. Lug'atda har bir so'zning maqbul yozilish shakli, (o'zlashma so'zlarning) kelib chiqishi — etimologiyasi, zarur hollarda, talaffuzi ko'rsatilgan, ma'nosi (yoki ma'nolari) aniqlangan va izohlangan, so'zlarning aniqlangan ma'nolari va shu ma'nolarda to'g'ri qo'llanishi uzbek badiiy va ilmiy adabiyotidan, matbuotdan olingan misollar — iqtiboslar bilan dalillangan.

Lekin me'yorni payqash, me'yoriy holatlarni ajratib olish oson ish emas. SHu sababli adabiy til me'yorlarini belgilashda lug'atda ayrim kamchiliklar, munozarali, bahsli hollar bo'lishi tabiiydir. Lug'atning yuzaga kelishi, adabiy til me'yorlarini qat'iy, barqaror holga keltirish bilan birga, unda uzil-kesil hal etilmagan masalalarni aniqlash va bartaraf qila borish uchun ham yordam beradi, deb o'ylaymiz.

Shuni ham alohida qayd etib o'tish kerakki, me'yoriy lug'at adabiy til me'yorlarini belgilashga intilar ekan, me'yorlarni abadiylashtirmaydi. CHunki til me'yorlari ham, tilning o'zi kabi, ijtimoiy taraqqiyot bilan bog'liq holda o'zgarib, rivojlanib turadi[13].

Lug'atlar haqida fikr yuritilar ekan, avvalo, uning rang-barang qiyofasi lug'atlarning milliy madaniyatni shakllantirishdagi ahamiyati sifatida namoyon bo'ladi. Yuqorida ta'kidlanganidek, lug'atlar hamisha inson - jamiyat - madaniyat xalqasini birlashtirib turadi va madaniyatning bir bo'lagi sifatida borliqni aks ettiradi. Lug'atchilik sohasiga, odatda, ma'naviy madaniyat kontseptsiyasining bir bo'lagi deb qaralsa-da, ular ijtimoiy vazifasi jihatidan uzviy aloqador, bir-birini to'ldirib turuvchi, axborot almashuvchi faktorlar sifatida bir-biriga teskari vektor yo'nalishida ta'sir etib turadi. Biz uni quyidagi farqlanishdan ko'rishimiz mumkin:

- 1) lug'atlarning milliy madaniyatni shakllantirishdagi ahamiyati;
- 2) milliy madaniyatning lug'atchilik rivojiga ta'siri.

Ma'lumki, lug'at tuzish ishi sifatida turli xalqlarda yozuv taraqqiyotining ilk bosqichlarida u yoki bu tushunarsiz (eskirgan, dialektal, maxsus yoki chet tilga mansub) so'zning qanday ma'no anglatishini bilish ehtiyoji natijasida paydo bo'lgan. Lug'atlarning bugungi kundagi ahamiyati katta bo'lib, ma'lum bir soha vakillari foydalanadigan lug'atlardan tortib kundalik hayotda umumiy lug'at turlarigacha keng istefoda etilmoqda.

Lug'atlarning milliy madaniyatni shakllantirishdagi ahamiyati haqida so'z borar ekan, avvalo, bu borada lug'atchilik, ta'lim tizimida qo'llanayotgan lug'atlar va ularning ijtimoiy hayotdagি o'rni haqida to'xtalish lozim bo'ladi.

Tilshunosligimiz borasidagi tadqiqotlar bugungi kunda jahon tilshunosligining yutuqlari bilan hamohang tarzda olib borilmoqda. Ta'lim tizimidagi ona tili darsliklari haqida ham shunday ijobiy xulosaga kelsa xato bo'lmaydi. SHuningdek, maktab o'quvchilari uchun mo'ljallangan lug'atlarning milliy madaniyatni shakllantirishdagi ahamiyati ham o'ta muhim. Hatto ta'lim tizimidagi bu lug'atlarning o'rni o'quvchilar ijodkorligini oshirishda maktab darsliklari bilan yonma-yon, teng ahamiyatga ega bo'ladi. Agar o'quv lug'atlarining o'quvchi yoshlar ongiga ta'sir kuchini maktab darsliklariga teng holatda bo'ladi, deb hisoblasak, ommabop lug'atlar ta'sir kuchi esa inson ongiga sevib o'qiladigan badiiy asar bilan teng ahamiyatga ega bo'lishi haqida xulosa chiqarish mumkin. O'zbek tilshunosligi jahonda o'z yo'liga ega bo'layotgan bir pallada o'zbek milliy lug'atchiligi va bu borada olib borilayotgan tadqiqotlar ushbu ishonchli yo'lning istiqbolli mundarijasi vazifasini bajaradi deyish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Русско-арабско- словарь. –М., Русский язык. Стр. 608
2. Орифжонова Ш. Ўзбек тилида лексик градуонимия: Филол. фан. номз. дисс. ... автореф. - Т., 1996. -27 б.
3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилд. –Т.: 2006 -2008.
4. Абдумуратова, С. (2018). ВЛИЯНИЕ НА СОВРЕМЕННОЕ ВОСПИТАНИЕ АЛИШЕРА НАВОЙИ. Гуманитарный трактат, (25), 96-98.

5. Абдумуратова, С.С. (2022). ЭТНОКУЛЬТУРНЫЕ И СОЦИОЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ В ОБУЧЕНИИ РУССКОМУ ЯЗЫКУ КАК ИНОСТРАННОМУ. Академические исследования в области педагогических наук , 3 (1), 745-747.
6. Сайдовна, А.С. (2022). Язык является главным приоритетом в обучении. ЕВРОПЕЙСКИЙ ЖУРНАЛ ИННОВАЦИЙ В НЕФОРМАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ , 2 (2), 108-110
7. Shabbazova Dilfuza Ruzikulovna. (2021). THE ROLE OF THE FAMILY IN THE FORMATION OF PERSONAL VALUE IN TEACHERS AND STUDENTS IN PRIMARY SCHOOL. European Journal of Research Development and Sustainability, 2(10), 52-54. Retrieved from <https://scholarzest.com/index.php/ejrdss/article/view/1374>
8. Шаббазова Дилфузা Рузикуловна (2020). ИНДИВИДУАЛЬНЫЕ ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ "СООБРАЗИТЕЛЬНОСТИ" УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ. Евразийский Союз Ученых, (4-8 (73)), 46-49.
9. Шаббазова Дилфузা Рузикуловна (2020). Особенности развития творческой деятельности учащихся начальных классов. Вестник науки и образования, (10-2 (88)), 88-91.
10. Shabbazova Dilfuza Ruzikulovna. (2021). PRIMARY EDUCATION TEACHER AND STUDENT TEACHING ACTIVITIES AND SYSTEM OF PERSONAL VALUES. European Scholar Journal, 2(7), 32-33. Retrieved from <https://scholarzest.com/index.php/esj/article/view/1056>
11. Ruzikulovna, S. D. (2021). The importance of personal values of elementary school students in learning. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(10), 1711-1715.
12. Zarnigor, B., & Ruzikulovna, S. D. (2019). Views Of The Great Thinkers Of The East About Education And Perfection Of Human. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 7(12).
13. Шаббазова, Д. Р. (2018). АНАЛИЗ ФАКТОРОВ ПСИХИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ. Научные горизонты, (11-1), 350-355.
14. Бабамуратова, З., & Шаббазова, Д. Р. (2019). ВЗГЛЯДЫ ВЕЛИКИХ МЫСЛИТЕЛЕЙ ВОСТОКА О ВОСПИТАНИИ И СОВЕРШЕНСТВЕ ЧЕЛОВЕКА. Редакционная коллегия: Главный редактор (учредитель) ИП Всяких Максим Владимирович, кандидат экономических наук, 19.